



“AQLIY HUJM” PEDOGOGIK TEXNOLOGIYASINI “AVTOMOBIL YO‘LLARINI EKSPLUATATSIYA QILISH” FANIDA QO‘LLASH

Bobonazarov Temur Shuxrat o‘g‘li

Toshkent davlat transport universiteti asisstenti

Yusufjonov Abdullajon G‘ofurjon o‘g‘li

Toshkent davlat transport universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12516460>

ARTICLE INFO

Received: 17th June 2024

Accepted: 18th June 2024

Published: 24th June 2024

KEYWORDS

“Aqliy hujm” metodi,
mantiqiy fikrlash, avtomobil
yo‘llarini qurish, tarqatma
material, pedagogik texnologiya,
mustahkamlash, yakuniy
nazorat.

ABSTRACT

Bugungi kunda avtomobil yo‘llari muhandisligi bo‘yicha maxsus fanlarni o‘qitishda ko‘pgina zamonaviy pedagogik texnologiyalar qo‘llanib kelinmoqda. Ushbu maqolada “Aqliy hujm” pedagogik texnologiyasining afzalliklari uni qo‘llanish tartibi, qo‘llashda talab etiladigan qonun qoidalar va ushbu texnologiyadan samarali foydalanish yo‘riqnomasi keltirilgan. Shuningdek “Aqliy hujm” pedagogik texnologiyasini amalda bakalavr bosqichi talabalariga qo‘llash jarayoni tasvirlab berilgan.

Bugungi kunda erkin va mustaqil fikrlovchi, ijtimoiy-siyosiy hayotda ongli ravishda faol ishtirok etishga qodir yosh avlodni shakllantirish «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ning asosiy ustuvor yo‘nalishidir. Bu esa mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotiga demokratik asoslarini joriy etishni, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurishni tezlashtirish imkonini beradi. Dastur ta‘lim muassasalari mustaqilligini kengaytirish orqali ta‘lim boshqaruvini demokratlashtirishni o‘z ichiga oladi[1].

Pedagogik texnologiya — bu o‘qitish va o‘rganish jarayonlarini rejalashtirish, boshqarish va baholash orqali ta‘lim samaradorligini oshirishga qaratilgan tizimli va integrativ yondashuvdir. Bu yondashuv texnika vositalari, didaktik usullar va pedagogik amaliyotlarni o‘zaro bog‘lash orqali ta‘lim jarayonini samarali tashkil qilishni nazarda tutadi [2].

Shunday qilib, yangi texnik vositalar va yangi texnologiyalar-ta‘limga yangi tartib-qoidalarni kiritish uchun eng muhim komponentlardan biridir. Pedagog jamiyatdan buyurtmani umumiy ko‘rinishda oladi. Hattoki, o‘quv dasturlarida belgilangan maqsadlar ham bir nechta tushuntirishlar bilan cheklangan. Bu yerda maqsadlarni aniqlashtirishning o‘ziga xos pillapoyasini ko‘rish mumkin: jamiyatning umumiy talablaridan — ta‘lim tizimi vazifalariga, ulardan-ma‘lum ta‘lim muassasasi, o‘quv predmeti, uning mavzuli bo‘limlari va alohida o‘quv maqsadlariga o‘tish mumkin. Ilg‘or ijodkor pedagoglar, an‘anaviy ta‘lim texnologiyasidagi kamchiliklarga javob topish, talabaning aqliy mehnatini amalga oshirish metodlarini izlanishlari natijasida o‘ziga xos ta‘lim metodi vositalarini yaratadilarki, oqibatda yangicha pedagogik fikrlash tarzi vujudga keldi. Mana shu izlanishlar zamirida innovatsion pedagogik texnologiyaga asos solgan pedagogik texnologiyalar yaratila boshlandi. Qo‘llaniladigan pedagogik texnologiyalarni bir tizimga solish, unga maqsadli yo‘nalish berish ta‘limni amalga oshirishdagi shakl va mazmun yaxlitligi ta‘minlangan holdagina kutilgan zarur natijani

berishi mumkin. Ta'limga testlar, diagnoz va diagnostik tahlilning olib kirilishi, bilimlarni ko'p balli baholash tizimida aniqlashga o'tish, bo'lim mazmunini yaxlit holda o'zlashtirishni modellashtirish, tizimga solingan nazorat turlarida, talabalarning ishlashi va an'anaviy dars shakllarining vujudga kelishi, biz shu paytgacha o'rganib qolgan an'anaviy ta'lim o'rniga vujudga kelgan innovatsion pedagogik texnologiyalar bo'lib, ular yangicha fikrlash tizimidagi ta'limga o'tishni taqozo qiladi.

Quyida Avtomobil yo'llarini qurish fani bo'yicha "Aqliy hujm" pedagogik texnologiyasi haqida ma'lumot keltirib o'tsak:

Mazkur metodda biror muammo bo'yicha ta'lim oluvchilartomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir yechimga kelinadi. "Aqliy hujm" metodining yozma va og'zaki shakllari mavjud. Og'zaki shaklida ta'lim beruvchi tomonidan berilgan savolga ta'lim oluvchilarning har biri o'z fikrini og'zaki bildiradi. Ta'lim oluvchilar o'z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar[3].

Yozma shaklida esa berilgan savolga ta'lim oluvchilar o'z javoblarini qog'oz kartochockalarga qisqa va barchaga ko'rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki "pinbord" doskasiga (ignalar yordamida) mahkamlanadi. "Aqliy hujm" metodining yozma shaklida javoblarni ma'lum belgilar bo'yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir[4].

Ushbu metod to'g'ri va ijobiy qo'llanilganda shaxsni erkin, ijodiy fikrlashga o'rgatadi. "Aqliy hujm" metodidan foydalanilganda ta'lim oluvchilarning barchasini jalb etish imkoniyati bo'ladi, shu jumladan, ta'lim oluvchilarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Ta'lim oluvchilarda o'z fikrini faqat og'zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko'nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi ta'lim oluvchilarda turli g'oyalar shakllanishiga olib keladi. Bu metod ta'lim oluvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi[5].


"Aqliy hujm" metodi ta'lim beruvchi tomonidan qo'yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:

- ta'lim oluvchilarning boshlang'ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo'yilganda, bu metod darsning mavzuga kirish qismida amalga oshiriladi;
- mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog'lash maqsad qilib qo'yilganda, yangi mavzuga o'tish qismida amalga oshiriladi;
- o'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo'yilganda mavzudan so'ng, darsning mustahkamlash qismida amalga oshiriladi.


"Aqliy hujm" metodini qo'llashdagi asosiy qoidalar:

1. Bildirilgan fikr-g'oyalar muhokama qilinmaydi va baholanmaydi.
2. Bildirilgan har qanday fikr-g'oyalar, ular hatto to'g'ri bo'lmasa ham inobatga olinadi.
3. Har bir ta'lim oluvchi qatnashishi shart.

"Aqliy hujm" metodining tuzilmasi.



“Aqliy hujum” metodining bosqichlari




“Aqliy hujum” metodining afzalliklari:

- natijalar baholanmasligi ta'lim oluvchilarda turli fikr-g'oyalarning shakllanishiga olib keladi;
- ta'lim oluvchilarning barchasi ishtirok etadi;
- fikr-g'oyalar vizuallashtirilib boriladi;
- ta'lim oluvchilarning boshlang'ich bilimlarini tekshirib ko'rish imkoniyati mavjud;
- ta'lim oluvchilarda mavzuga qiziqish uyg'otadi.

“Aqliy hujum” metodining kamchiliklari:

- ta'lim beruvchi tomonidan savolni to'g'ri qo'ya olmaslik;
- ta'lim beruvchidan yuqori darajada eshitish qobiliyatining talab etilishi.

Metoddan samarali foydalanish maqsadida quyidagi qoidalarga amal qilish lozim:



Ushbu ta'lim texnologiyasini Toshkent davlat transport universitetining "Avtomobil yo'llarini qurish va ekspluatatsiya qilish" kafedrasida "Avtomobil yo'llarini qurish" fani "Grunt turlari va ularga ko'ra yo'l poyining ko'ndalang kesimi turlarini tanlash" mavzusida bakalavr bosqichi talabalariga qo'llandi. Bunda talabalarda dars jarayonida mantiqiy fikrlash, o'z fikrlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o'zlarini baholash, yakka va guruhlarda ishlashga, boshqalar fikriga hurmat bilan qarash qobiliyatlarini namoyon bo'ldi.

Bu texnologiyani dars boshlanishida yoki tugash paytida qo'llash mumkin bunda o'tilgan mavzular bilimlarni mustahkamlashga va mavzu bo'yicha talabalarni baholashga erishiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, talabalarni dars jarayoniga qiziqishini oshirish va dars mashg'ulotlarini tushunarli bo'lishi uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash zarur. Texnik fanlarni o'qitishda pedagogik texnologiyadan foydalanish ta'lim natijalarini oshirishda samarali bo'ladi deb o'ylayman. Texnologiyani qo'llash orqali talabalar yangi tushunchalar, amaliy ko'nikma va bilimlarga ega bo'lishi, mantiqiy fikrlash, shaxsiy fikrga ega bo'lishiga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA HAVOLALAR:

1. Аршинов В. И., Буданов В. Г. Развитие "педагогической технологии" и проблемы теории обучения. Москва: Вопросы философии. – 2017. – № 1 – С. 50–61.
2. Q.X.Azizov "Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi". O'quv qo'llanma. TAYLQEI. Toshkent 2019 y,
3. Аршинов В. И., Буданов В. Г. Развитие "педагогической технологии" и проблемы теории обучения. Москва: Вопросы философии. – 2017.

4. Babanskiy Yu. O'qitish samaradorligini oshirishning didaktik asoslari haqida. M.: Pedagogika — 2006 yil
5. <https://muhaz.org/download/aqliy-hujum-metodi.doc>

